



“TASDIQLAYMAN”
Buxoro davlat universiteti
rektori _____ O.X. Xamidov

2023-yil «29» dekabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING 2023/2024 O‘QUV YILI
5 - YIG‘ILISH QARORLARI

2023-yil «29» dekabr
Soat 13:00

- Raislik qiluvchi:** – **O.X. Xamidov – Buxoro davlat universiteti rektori, kengash raisi**
- Qatnashdilar:** – Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:

Eshitildi: O.X. Xamidov (kengash raisi) kengash a‘zolariga “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrdagi “Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” mavzusidagi ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan ustivor vazifalar ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida” axborot berdi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a‘zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori O.X. Xamidovning “Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” mavzusidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan ustivor vazifalar ijrosini ta‘minlash to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Universitet professor o‘qituvchilari va ishchi xodimlari tomonidan mazkur yig‘ilishning mazmun-mohiyati chuqur o‘rganilib, unda belgilangan ustivor vazifalarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbir ishlab chiqilsin.

3. Mazkur qaror ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

II Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar yo‘nalishi bo‘yicha:

2.1. Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo‘ljallangan rejalar to‘g‘risida

Eshitildi: A.A.Amonov (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor) kengash a'zolariga Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonovning "Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida" gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro davlat universitetida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb topilsin, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar yo'nalishlar bo'yicha to'liq tahlil etilib, takomillashtirilgan holda tasdiqlansin. (mas'ul: Profilaktika inspektorlari, tyutorlar).

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

2.2. 2023-yil davomida universitetda tahsil olayotgan tahsil olayotgan talabalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

Eshitildi: A.A.Amonov kengash a'zolariga 2023-yil davomida universitetda tahsil olayotgan tahsil olayotgan talabalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. 2023-yil davomida universitetda tahsil olayotgan tahsil olayotgan talabalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro davlat universitetida tahsil oluvchi talaba-yoshlarlar orasidan jinoyatchilikka moyil talabalarni aniqlash va ular bilan o'g'rilik, firibgarlik qilish kabi jinoyatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish borasida tashviqot ishlari hamda profilaktik suhbatlar o'tkazilsin (mas'ul: Profilaktika inspektorlari, tyutorlar).

3. Jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan universitet talaba-yoshlari bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan ularga psixologik amaliy yordam ko'rsatishni, o'qishga bo'lgan ma'suliyatini oshirishni, jinoyat uchun jazo muqarrar ekanligini tushuntirish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilsin (mas'ul: Profilaktika inspektorlari, tyutorlar).

4. Jinoyat sodir etgan universitet talaba-yoshlari bilan keng jamaotchilik vakillarini, shu jumladan oila a'zolarini jalb qilgan xolda ular bilan tarbiyaviy-profilaktik yig'ilishlar o'tkazilsin (mas'ul: Profilaktika inspektorlari, tyutorlar).

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

2.3. 14-yanvar – O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan vatanaparvarlik haftaligini o‘tkazish to‘g‘risida

Eshitildi: A.A.Amonov kengash a‘zolariga 14-yanvar – O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan vatanaparvarlik haftaligini o‘tkazish to‘g‘risida axborot berdi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a‘zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1.14-yanvar – O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan vatanaparvarlik haftaligini o‘tkazish to‘g‘risida Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2.Universitetda “Vatan himoyachilari kuni” bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar rejasiga qo‘shimcha kiritilsin va tasdiqlansin (mas‘ul: dekanlar, dekan o‘rinbosarlari, tyutorlar).

3.Rejaga muvofiq belgilangan tadbirlarni yuqori saviyada amalga oshirish uchun fakultet dekanlari mas‘ul etib belgilansin.

4.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

III O‘quv ishlari yo‘nalishi bo‘yicha:

3.1. O‘quv ishlari bo‘yicha 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo‘ljallangan rejalar to‘g‘risida

Eshitildi: R.G.Jumayev (O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) kengash a‘zolariga “O‘quv ishlari bo‘yicha 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo‘ljallangan rejalar to‘g‘risida” axborot berdi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a‘zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universitetida 2023-yilda o‘quv-uslubiy ishlar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yakunlari hamda 2024-yildagi maqsadli ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘quv ishlar bo‘yicha prorektor R.G. Jumayev hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin;

2. 2022/2023 o‘quv yili bitiruvchilarining ish bandligini o‘rganish va ishga joylashishini muntazam monitoring qilish amalga oshirilsin (mas‘ullar: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, marketing va karyera bo‘limi);

3. 2024-yil uchun malaka oshirish rejasiga asosan kafedra professor-o‘qituvchilarini malaka oshirish kurslariga yuborish to‘liq ta‘minlansin (mas‘ullar: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, o‘quv-uslubiy departament);

4. 2024-yil uchun xorijdan talabalarni jalb qilish maqsadida universitet ta‘lim jozibadorligini targ‘ib qiluvchi maxsus veb-portal yaratish va uni barcha fakultetlari hamda tuzilmalari bo‘yicha batafsil va ishonchli ma‘lumotlar bilan to‘ldirib borish (mas‘ullar: xalqaro hamkorlik bo‘limi, raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi, o‘quv-uslubiy departament, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari);

5. 2024/2025 o'quv yili kadrlar buyurtmachilari bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha o'quv rejalarni hamda fan dasturlarini o'zaro hamkorlikda ishlab chiqish. Ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtirokini ta'minlash (mas'ullar: marketing va talabalar amaliyoti bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, o'quv-uslubiy departament);

6. G'ijduvon tumandagi o'quv binosi moddiy-texnik bazasi yanada kuchaytirilsin va Vazirlar universitet filialini tashkil etish bo'yicha taklif tayyorlansin (mas'ullar: Rektor ijro apparati, o'quv-uslubiy departament);

7. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

3.2. 2023/2024 o'quv yilida talabalarning qabuli, kursdan-kursga ko'chirish, talabalar safidan chetlatish buyruqlarining tegishli tartibda rasmiylashtirish ishlarining amalga oshirilishi bo'yicha ischi SHTABi faoliyati to'g'risida

Eshitildi: R.G'.Jumayev (O'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga "2023/2024 o'quv yilida talabalarning qabuli, kursdan-kursga ko'chirish, talabalar safidan chetlatish buyruqlarining tegishli tartibda rasmiylashtirish ishlarining amalga oshirilishi bo'yicha ischi SHTABi faoliyati to'g'risida" axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. 2023/2024 o'quv yilida talabalarning qabuli, kursdan-kursga ko'chirish, talabalar safidan chetlatish buyruqlarining tegishli tartibda rasmiylashtirish ishlarining amalga oshirilishi bo'yicha iichi SHTABi faoliyati to'g'risida o'quv ishlar bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2. 2024-yil yanvardan boshlab fakultet talabalari kontingentini monitoring qilish hamda kursdan kursga o'tkazish vazifalari O'quv-uslubiy departament Registrar ofis va talabalar bilan ishlash sektori zimmasiga yuklatilsin. (mas'ullar: O'quv-uslubiy departament);

3. O'qishga tavsiya etilgan abituriyentlarning belgilangan tartibda va vaqtda talabalar safiga qabul qilish, shuningdek, kursdan-kursga ko'chirish, talabalar safidan chetlashtirish buyruqlarining tegishli tartibda (asoslarini puxta tayyorlagan holda) rasmiylashtirish ishlarini amalga oshirilishi bo'yicha mas'uliyati oshirilsin (mas'ullar: O'quv-uslubiy departament, fakultet dekanlari);

4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

3.3.1. Tarix va yuridik fakultetida o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyatini o'rganish to'g'risida

Eshitildi: Sh. Xudoyberdiyev (ishchi guruh raisi) kengash a'zolariga "Tarix va yuridik fakultetida o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyatini o'rganish to'g'risida" axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Ishchi guruh raisi N.Q.Ro'zievning "Tarix va yuridik fakulteti faoliyatini kompleks o'rganish" bo'yicha ishchi guruh axboroti ma'lumot sifatida qabul qilinsin.

2. 2023-2024-o'quy yilda fakultetda o'quv jarayonlarni olib borish uchun me'yoriy va o'quv uslubiy hujjatlarini yangi o'quv yiliga tayyorligi hamda ularga mos ravishda o'quv yuklamalarning optimal taqsimlanganligi, darslar jadval asosida o'tilayotganligi, reyting nazoratlari esa amaldagi Nizom asosida o'tkazilayotganligi hamda ular natijalari elektron qaydnomalarda qayd etib borilayotganligi e'tirof etilsin.

3. Mutaxassislik kafedralarda olib borilayotgan o'quv va o'quv-uslubiy ishlarining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarda olib borilishi qoniqarli deb hisoblansin. Hemis tizimida bahorgi jarayon uchun fan mavzulari va resurslarni joylashtirish ishlari yakuniga yetkazilsin (muddat. 1 oy, mas'ul: kafedra mudiri va dars beruvchi o'qituvchilari).

4. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish ko'rsatmalarini tizimga joylashtirish, malakaviy amaliyotlarni tashkil etishda rejaga muvofiq ishlash hamda bitiruvchilar bandligini o'rganish bo'yicha ishlarni oxirigacha yetkazilsin. Ilmiy ishlarni yanada yaxshilash uchun ilmiy unvon va darajasiz o'qituvchilarni tadqiqot olib borishlari ta'kidlansin. 2024 yilda fundamental va innovatsion davlat grantlari olinishiga e'tibor qaratsin (mas'ul fakultet dekani)

5. Ta'lim jarayonlariga jahonning yuqori 500 talik reytingiga kiruvchi oliygohlarda ishlovchi yoki vatandosh professor-o'qituvchilardan jalb etish ishlari yo'lga qo'yilsin. Ta'lim dasturlarini yuqori 1000 talik oliygohlar dasturlari bilan moslashtirib xorijdan talabalarni jalb etishga loyiq yangi bakalavriat qo'shma dasturlarni yoki magistratura mutaxassisliklarni ochish bo'yicha takliflar ishlab chiqilsin (muddat 1 oy masu'l kafedralar)

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish fakultet dekani zimmasiga yuklatilsin.

3.3.2.San'atshunoslik fakultetida o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyatini o'rganish to'g'risida

Eshitildi: Sh. Xudoyberdiyev (ishchi guruh raisi) kengash a'zolariga "San'atshunoslik fakultetida o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyatini o'rganish to'g'risida" axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Ishchi guruhi raisi Sh.Sh. Xudoyberdiyevning "San'atshunoslik fakulteti faoliyatini kompleks o'rganish" bo'yicha axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-2024-yilda kafedralarda o'quv-me'yoriy hujjatlar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalar va dasturlar bilan ta'minlanganligi va ular asosida ishchi o'quv rejalar va ishchi dasturlarning ishlab chiqilganligini hamda professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini optimal taqsimlanganligi, darslar jadval asosida to'liq va sifatli o'tilayotganligi e'tirof etilsin.

3. Kafedralarda o'quv va o'quv-uslubiy ishlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida olib borilishi qoniqarli deb hisoblansin. Yangi ochilgan ta'lim yo'nalishlarida me'yoriy hujjatlarning yuritilishida ayrim kamchiliklar tuzatilib talab darajasida tayyorlansin va Hemis platformasida fan resurslarni joylashtirish ishlari bir hafta muddatda yakuniga yetkazilsin (mas'ul: kafedra mudirlari va fan o'qituvchilari).

4. Kafedraga tegishli bitiruvchilar bandligini o'rganish bo'yicha ishlar oxiriga yetkazilsin. Ilmiy ishlarni yanada yaxshilash uchun kafedralar yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlik shartnomalarini tuzib, ilmiy-tadqiqot ishlari olib

borishlari ta'kidlansin. Fundamental va amaliy loyihalar olinishiga e'tibor qaratilsin (mas'ul fakultet dekani va kafedra mudirlari).

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish o'quv ishlari bo'yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

IV Ilmiy-ishlar va innovatsiyalar yo'nalishi bo'yicha:

4. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida

Eshitildi: T.H. Rasulov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga "Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida" axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashlar faoliyati qoniqarli deb topilsin. 2024-yilda himoyalar salmog'i oshirish bo'yicha har bir kengash tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin (mas'ul: Ilmiy kengash raislari, Ilmiy kengashlarning ilmiy kotibi, muddat: 15.01.2024 y).

3. Ekologiya va geografiya, Umumiy va noorganik kimyo, Organik va fizkolloid kimyo, Buxgalteriya hisobi va statistika, Differensial tenglamalar, Tasviriy va amaliy san'at kafedralarida himoya ko'rsatkichlari qoniqarsiz ekanligi qayd etilsin hamda pedagog xodimlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish hamda himoyalar sonini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin (mas'ul: Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, muddat: 20.01.2024 y).

4. Kafedralarda faoliyat ko'rsatayotgan professor o'qituvchilar tomonidan muntazam ravishda Scopus, Web of Science kabi xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan hamda OAK tasarrufidagi (xalqaro va respublika) jurnallarda ilmiy maqolalarning chop etish natijadorligi bo'yicha maqsadli va manzilli ishlar tashkil etilsin (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i).

5. Universitet professor-o'qituvchilarining Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida e'lon qilingan fundamental, amaliy, innovatsion loyihalar tanlovlarida faol ishtiroki ta'minlansin (mas'ul: Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish sektori bosh mutaxassisi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari).

6. Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha belgilangan reja ko'rsatkichini bajargan fakultetlar e'tirof etilsin. Filologiya (44,87%) hamda Tarix va yuridik (24,57%) fakultetlarida reja ko'rsatkichlarining bajarilish ko'rsatkichlari qoniqarsizligi qayd etilsin.

7. Ushbu qarorning ijro nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

V. Xalqaro hamkorlik yo'nalishi bo'yicha:

5. Xalqaro hamkorlik faoliyatining 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida

Eshitildi: A.T.Jo'rayev (Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Xalqaro hamkorlik faoliyatining 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jo'rayevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-2030 yillar davomida xorijiy va mahalliy grant mablag'lari, shuningdek universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan professor-o'qituvchilarni xorijiy davlatlarga tajriba almashish uchun yuborishning maqsadli ko'rsatkichi Buxoro davlat universiteti uchun har yili 136 nafar qilib belgilanganligi, ushbu reja ijrosini ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik rektorga yuklanganligi e'tiborga olinsin. Xorijga tajriba almashish jarayonlarini shaffof, sifatli, narx-samara nuqtai nazaridan asoslangan, natijadorlikka yo'naltirilgan talablar asosida tashkil etilishi zaruriyati alohida ta'kidlab o'tilsin (mas'ul: prorektor A.Jo'rayev, ishchi guruh a'zolari).

3. O'quv yili davomida professor-o'qituvchilar uchun xorijda malaka oshirish, stajirovka o'tash, konferensiya va loyihalarda grant dasturlari doirasida qatnashishlari qo'llab quvvatlansin va tanlovlar to'g'risidagi ma'lumotlar universitet ijtimoiy tarmoqlarida keng yoritilsin (mas'ul: prorektor A.Jo'rayev, xalqaro hamkorlik departamenti).

4. 2024-yilda erishiladigan maqsadli ko'rsatkichlarni barcha xalqaro hamkorlik yo'nalishlarida belgilab olish va bu borada kafedralar bilan hamkorlikda ishlar tashkil etilsin (mas'ul: prorektor A.Jo'rayev, xalqaro hamkorlik departamenti).

VI. Moliya-iqtisod ishlari yo'nalishi bo'yicha:

6.1. Moliya-iqtisod ishlari faoliyatining 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida

Eshitildi. O'.Rashidov (Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Moliya-iqtisod ishlari faoliyatining 2023-yil yakunlari, natijalar, tahlillar, 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yilgi xarajatlar smetasida belgilangan xarajatlarning yakunlanmagan qismini 2024-yilgi xarajatlar smetasida inobatga olib, ijrosi ustidan qa'iy nazorat o'rnatilsin.

3. 2024-yilgi budjet va budjetdan tashqari xarajatlar smetasini shakllantirishda barcha fakultetlar, departamentlar va bo'limlarning e'xtiyojlarini o'rganib chiqib, Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi ta'minlansin.

4. Universitetning moliya-iqtisod ishlari yo'nalishi bo'yicha 2024-yilgi tadbirlar rejasi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi inobatga olinsin.

5. Ushbu qarorning ijro nazorati moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidov zimmasiga yuklatilsin.

6.2. Kontrakt shartnomalarini rasmiylashtirishini yakuniga yetkazish hamda shartnoma to'lovlarni amalga oshirilishini ta'minlash choralari ko'rish bo'yicha ishchi SHTABi faoliyati to'g'risida

Eshitildi. O'.Rashidov (Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Kontrakt shartnomalarini rasmiylashtirishini yakuniga yetkazish hamda shartnoma to'lovlarni amalga oshirilishini ta'minlash choralari ko'rish bo'yicha ishchi SHTABi faoliyati to'g'risida axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2023-2024-yilgi davlat qabul komissiyasining ko'ratmasiga asosan kontrakt to'lovlarning oxirgi muddati 25-dekabrda tugaganligi inobatga olinsin.
3. Shartnoma shartlari bo'yicha 25 foiz to'lovlarni amalga oshirmagan talabalar ro'yxatini shakllantirib, ijro uchun fakultetlar mas'ullariga taqdim etilsin hamda 50 foiz to'lovlarni amalga oshirilishi qat'iy nazoratga olinsin.
4. To'lovlarni amalga oshirishdagi suskashligi uchun fakultetlarning mas'ul xodimlariga nisbatan mexnat konunchiligida belgilangan tartibda chora ko'rilishi bo'yicha taqdimnoma kiritilsin.
5. Ushbu qarorning ijro nazorati moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidov zimmasiga yuklatilsin

VII. Ta'lim sifatini nazorat qilish yo'nalishi bo'yicha:

7. 2023-yil davomida Buxoro davlat universitetida Milliy reyting indikatorlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida

Eshitildi: Z.Nurov (Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig'i) kengash a'zolariga 2023-yil davomida Buxoro davlat universitetida Milliy reyting indikatorlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2024-yilga mo'ljallangan rejalar to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. "Kafedralarning 2023-yildagi reytingi va 2022-yilga nisbatan kafedralar reytingidagi o'zgarish to'g'risida"gi Z.S.Nurovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin. 2024-yildan Milliy reyting indikatorlariga kiritilayotgan o'zgarishlar inobatga olinsin.
2. 2023-yil reyting indikatorlari bo'yicha ko'rsatkichlar dastlabki ma'lumot bo'lib, yil yakuniga qadar qayd etiladigan boshqa ko'rsatkichlar bilan yangilanishi hamda kafedralar reyting ko'rsatkichlari o'zgarish ehtimoli mavjud ekani, shuningdek yuqori natijalarni rag'batlantirish hamda qoniqarsiz natijalar bo'yicha chora ko'rish yakuniy ma'lumotlar shakllantirilgach amalga oshirilishi inobatga olinsin.
3. 2023 yil reyting indikatorlari bo'yicha yuqori natija qayd etgan *Umumiy va noorganik kimyo, Matematik analiz, Iqtisodiyot, Turizm va mehmonxona xo'jaligi, Marketing va menejment, Ekologiya va geografiya, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes, Psixologiya va sotsiologiya, Ingliz tilshunosligi, Geliyofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika* kafedralar mudirlari va professor-o'qituvchilari faoliyati **e'tirof** etilsin.

4. Kafedralarning 2024-yil faoliyat natijadorligini oshirish maqsadida har bir kafedrada pedagog-xodimlar reytingi shakllantirilsin hamda kafedralardagi kadrlar masalalari bo'yicha takliflar, kafedralar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, alohida yondashuv asosida ular faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin va doimiy monitoringi amalga oshirilsin (muddat: 20.01.2024, mas'ul: kafedra mudirlari, fakultet dekanlari; nazorat: TSNQD va birlashtirilgan prorektorlar).

5. Reyting indikatorlari bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiyliги yuzasidan tegishli fakultet dekani, kafedra mudiri, pedagog-xodim hamda ma'lumotlarni umumlashtiruvchi tegishli bo'lim xodimlari mas'ul ekani belgilansin.

VIII. Marketing va karera bo'limi yo'nalishi bo'yicha

8. Bitiruvchilar bandligini ta'minlash va 2024/2025-o'quv yili qabul parametrlarini shakllantirish to'g'risida

ESHITILDI: S.Hamidov (Marketing va karera bo'limi boshlig'i) kengash a'zolariga 2022/2023-o'quv yili bitiruvchilarining bandlik holati to'g'risida ma'lumot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Marketing va karyera bo'limi boshlig'i S.Hamidovning 2022/2023-o'quv yili bitiruvchilari bandlik holati to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilihsin.

2. Marketing va karyera bo'limi boshlig'i S.Hamidovning 2024/2025-o'quv yili qabuli bo'yicha takliflar inobatga olinsin, shuningdek, yangi tashkil etilishi rejalashtirilayotgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha o'quv davsturlari va adabiyotlari tarkibi mavjudligi yuzasidan mutaxassislik kafedralari tomonidan O'quv-uslubiy departamentiga ma'lumot yetkazilishi ta'minlansin.

3. Universitetda 2024/2025-o'quv yili qabuli bo'yicha tayyorlangan takliflar e'tiborga olinsin va fakultetlarda qayta ko'rib chiqilsin.

4. Ushbu takliflar asoslangan holda umumlashtirilib, Marketing va karyera bo'limi (S.Hamidov)ga taqdim etilsin.

IX. Turli masalalar.

9.1. 2024-yil uchun universitet "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risida.

Eshitildi: R.G.Jumayev (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga 2024-yil uchun universitet "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayevning 2024-yil uchun universitet "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun universitet "Yo'l xaritasi" tasdiqlansin.
3. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

9.2. 2023/2024 o'quv yili davomida pedagogik faoliyat olib borayotgan universitet rektori, prorektorining o'quv yuklamasini bajarishda (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmini kamaytirish to'g'risida.

Eshitildi: R.G.Jumayev (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga 2023/2024 o'quv yili davomida pedagogik faoliyat olib borayotgan universitet rektori, prorektorining o'quv yuklamasini bajarishda (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmini kamaytirish to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. 2023/2024 o'quv yili davomida pedagogik faoliyat olib borayotgan universitet rektori, prorektorining o'quv yuklamasini bajarishda (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmini kamaytirish to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023/2024 o'quv yili davomida pedagogik faoliyat olib borayotgan universitet rektori, prorektorining o'quv yuklamasini bajarishda (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmini kamaytirish to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.

3. 2023/2024 o'quv yili davomida pedagogik faoliyat olib borayotgan universitet rektori, prorektorining o'quv yuklamasini bajarishda (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmini kamaytirishga ruxsat berilsin

4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

9.3. Universitet faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida tuzilmani optimallashtirish to'g'risida

Eshitildi: R.G.Jumayev (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Universitet faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida tuzilmani optimallashtirish to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari bildirildi

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayevning 2024-yil uchun universitet faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida tuzilmani optimallashtirish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet faoliyat samaradorligini oshirish bshyicha belgilangan tartib asosida tuzilma optimallashtirilsin

3. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

9.4. Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o'qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAK ga yuborish to'g'risida

Eshitildi: T.H. Rasulov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga "Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o'qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAK ga yuborish to'g'risida" axborot berdi.

2.1. Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Shodiyeva Shahlo Soliyevnaning **dotsent ilmiy unvonini olish** uchun attestatsiya hujjatlarini O'zR OAK ga taqdim etish to'g'risida.

